

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ZAMONAVIY BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17128426>

Raxmatova Hulkar Ilxomiddinovna

Bank Moliya akademiyasi

"Tijorat banklarini boshqarish" yo'nalishi magistranti

Hulkarrahmatoval@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida bank tizimi modernizatsiyasi, raqamli moliya xizmatlarini joriy etish va bank sektorini barqaror rivojlantirish istiqbollari yoritilgan. Mavzu doirasida davlat strategiyalari, xalqaro tajribalar va ichki bozor talablari tahlil qilinib, innovatsion xizmatlarni kengaytirish hamda moliya bozorida raqobatni kuchaytirish yo'llari taklif etiladi.

Kalit so'zlar

bank tizimi, raqamli moliya, fintech, moliyaviy inklyuziya, O'zbekiston, istiqbol.

Аннотация

В данной статье освещаются перспективы модернизации банковской системы, внедрения цифровых финансовых услуг и устойчивого развития банковского сектора в Республике Узбекистан. В рамках темы будут проанализированы государственные стратегии, международный опыт и требования внутреннего рынка, предложены пути расширения инновационных услуг и усиления конкуренции на финансовом рынке.

Ключевые слова

банковская система, цифровые финансы, финтех, финансовая инклюзия, Узбекистан, перспектива.

Annotation

This article highlights the prospects for the modernization of the banking system, the introduction of digital financial services and the sustainable development of the banking sector in the Republic of Uzbekistan. The topic will analyze government strategies, international experience and the requirements of

the domestic market, suggest ways to expand innovative services and strengthen competition in the financial market.

Keywords

banking system, digital finance, fintech, financial inclusion, Uzbekistan, perspective.

Kirish: Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida barcha sohalar,shu jumladan bank sohasi ham qiziqarli, muhim va ustuvor sohalardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlat sifatida dunyoning yetakchi davlatlari qatorida o'rin egallashda bank va bank tizimining salmoqli ulushi bor. O'zbekiston respublikasi bank tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatimizda bank tizimining erkinlashtirilishi va xususiylashtirilishi amalga oshirildi. Banklarning ixtisoslashuvidan voz kechish va ular faoliyatining universallashtirish ham aynan mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlarning biri hisoblanadi. Har bir korxona va tashkilot faoliyatini amalga oshirishning muhim masalalardan biri boshqaruv masalasi. Tijorat banklari ham ko'zlangan strategik va joriy maqsadlarga erishish uchun zamonaviy boshqaruv tizimiga ega bo'lishi talab etiladi.

Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-iyulda qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qarorning 35-moddasida:


-Bank boshqaruvi bankni boshqarishning ijro etuvchi organi bo'lib, u bankning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan faoliyat strategiyasi va uni boshqarish tizimiga muvofiq bankning faoliyatiga operativ boshqaruvni amalga oshiradi hamda bankning faoliyati uchun javobgarlikni to'liq zimmasiga oladi.

-Bank boshqaruvi: strategik maqsadlarni, korporativ boshqaruv siyosatini, bankning boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va tavakkalchiliklar to'g'risida xabardor etish, kapitalning yetarliligini lozim darajada saqlab turish siyosatini amalga oshirishi;

-bankning tegishli va shaffof tashkiliy tuzilmasini, shu jumladan vakolatlarni va javobgarlikni bank xodimlari o'rtasida o'z vakolatlari doirasida taqsimlashni ta'minlashi;

-bank xodimlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishi; bankning qabul qilingan yillik biznes-rejasini bajarishi, shuningdek bank

aksiyadorlarining umumiy yig'ilishiga va kuzatuv kengashiga bajarilgan ishlar, bankka nisbatan qo'llanilgan choralar hamda sanksiyalar to'g'risidagi hisobotni davriy ravishda taqdim etishni o'z ichiga oladi.



O'zbekiston respublikasi hukumati hukumati va Markaziy banki iqtisodiyotni bosqichma-bosqich isloh qilish qoidasiga rioya qilgan holda bank-moliya sektorida samaradorlikka erishishga, institutional o'zgarishlarning unumdorligini oshirish va boshqaruv tizimini takomillashtirishga katta e'tibor qaratmoqda. Chunki, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish sur'atlari aynan bank tizimining barqarorligiga bog'liq. Bizga ma'lumki, iqtisodiyotni tartibga solish va boshqarish fiskal va monetar usullar asosida amalga oshiriladi. Tijorat banklari faoliyatini boshqarishda va uni tartibga solib borishda monetarvositalardan foydalanish samarali va ta'sirchanligi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Ma'lumki, menejment so'zi inglizcha "management" so'zidan olingan va o'zbek tilida "boshqarish" ma'nosini anglatadi. Ilmiy adabiyotlarda ba'zi hollarda "korxonani boshqarish" deb tushunilsa, ba'zida "korxonani boshqarish shakli, vositalari, tamoyillari va bilimlar yig'indisi" deb ta'riflanadi. Ushbu

yondashuv tijorat banklari menejmenti faoliyatini boshqarish chuqur bilim va vositalarga ega bo'lishni talab etadi. Tijorat korxonasi sifatida banklar faoliyatini boshqarish ma'lum bir sohadagi bilimlar bilan kifoyalanmasdan, barcha tarmoq va sohalar bo'yicha bilimga va tushunchalarga ega bo'lishni talab etadi. Shunday qilib, zamonaviy bank menejmenti -bu banklar faoliyatida xodimlarni, moliyaviy xizmat va operatsiyalarni hamda bankning moliyaviy natijalarini boshqarish shakli, vositalari va maxsus bilimlar yig'indisidir. Bank menejmenti boshqaruv faoliyatining ob'yekti bo'lib, nazariy va amaliy soha hisoblanadi. Bank menejmenti fan sifatida o'zida ma'lum soha faoliyatining nazariy va uslubiy asoslarini o'zida ifoda etadi. Amaliy faoliyat sifatida esa, ma'lum tijorat bankini boshqarish va tashkil qilish shakli hisoblanadi. Zamonaviy bank menejmenti o'z navbatida ikkiga bo'linadi.

1. Moliyaviy menejment

2. Hodimlar menejmenti

Banklarda moliyaviy menejment bankning pul mablag'larini boshqarishga asoslanadi. Tijorat banklarida zamonaviy menejmentni rivojlantirish banklarning iqtisodiyotdagi roli, maqsad va vazifalari, ob'yektlari, usullari va bank faoliyatini boshqarishni o'z ichiga oladi. Moliyaviy menejment orqali tijorat banklari likvidligini boshqarishi, moliyaviy resurslarini boshqarish, kredit, investitsion va valyuta portfelini boshqarishi, moliyaviy natijalarini va balansdan tashqari operatsiyalarini boshqarishi mumkin.

Tijorat banklari kutilayotgan daromad darajasini ushlab turgan holda risk darajasini minimallashtiradi. Demak, moliyaviy menejment bank menejmentining ajralmas va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Zamonaviy bank menejmenti o'z tarkibiga moliyaviy menejmentdan tashqari xodimlar menejmentini o'zida mujassamlashtiradi. Xodimlar menejmentida bank mutaxassisleri va yollangan xodimlarni boshqarish amalga oshiriladi.

Zamonaviy bank menejmenti boshqaruv faoliyati sifatida o'z ichiga quyidagi elementlarni oladi: ob'jekt, sub'jekt, vositalar (instrumentlar) protsedura va huquqiy ta'minot. Bank menejmentining maqsadi bank faoliyatini amalga oshirishni ta'minlash bo'lib, tijorat bankining yuqori foyda olishini va bozorda o'z o'rniga ega bo'lishni ta'minlashi lozim. Zamonaviy bank menejmentining maqsadi ikkiga ya'ni iqtisodiy va ijtimoiy maqsadga bo'linadi. Banklarning tijorat tashkiloti ekanligidan kelib chiqib, Zamonaviy bank menejmentining iqtisodiy maqsadi -bu yuqori foyda olishdir. Birlamchi

maqsad foyda olish hisoblanib, bank ta'sischi'lari, ya'ni bank egalari o'z mablag'lari yo'naltirishdan yuqori foyda olishni ko'zlaydi.

Raqamli transformatsiya banklarga daromadlilikni oshirish va xizmat ko'rsatishni yaxshilash kabi samarali imkoniyatlarni berdi. Prezident Sh. Mirziyoyev tomonidan, O'zbekistonni izchil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalari sifatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kengroq amaliyotga joriy qilish hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish bo'yicha Strategiya ishlab chiqish vazifalarini belgilab berilib, bular, rivojlanish ustuvorliklari, maqsad va vazifalarni aniq belgilash, bank tizimini tubdan isloh qilish va o'zgartirish yo'nalishlari bo'yicha 2020-2025 yillarga mo'ljallangan topshiriqlarni o'z ichiga olgan.

Innovatsion faoliyatning rivoji, har bir davlatning iqtisodiyotini yuksaltirishda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston ham bu borada aniq qadamlar tashlab, ayniqsa, bank sohasida innovatsion jarayonlar taraqqiyotiga katta ahamiyat bermoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi, mamlakatning turli sohalarini, shu jumladan, Bank tizimini ham modernizatsiya qilish va yanada rivojlantirish masalalarini o'z ichiga olgan beshta ustuvor yo'nalishni belgilab beradi. Ushbu strategiya doirasida bank sektori bo'yicha ham bir qancha maqsadlar qo'yilgan.

Bu borada quyida keltirilgan ma'lumotlarni nazarda tutish taklif etiladi:

"- aholiga muayyan vaqt davomida belgilangan limit doirasida bank mablag'lari hisobidan tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish imkonini beruvchi kredit kartalarini muomalaga kiritish;

- bank plastik kartalari orqali jismoniy shaxslarning depozit hisob raqamlarini boshqarish imkoniyatini kengaytirish;

- bank plastik kartalari orqali hisob raqamlarga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlaridan («SMS-banking», «Internet-banking», «Mobil-banking») foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

- plastik kartadagi mablag'larni boshqa kartaga o'tkazish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar uchun tariflarni kamaytirish;

- to'lov terminallaridan foydalanganlik uchun ijara to'lovi miqdorini ikki marta qisqartirish;

- valyuta va soliq nazoratini soddalashtirishni o'z ichiga olgan elektron tijoratni rivojlantirishni rag'batlantirish, plastik kartalar bo'yicha o'zaro hisob-kitob qilish tizimida olinmagan tovar va foydalanilmagan xizmat uchun to'lovni qaytarishni tartib-taomillari va texnologiyalarini joriy etish" (Harakatlar strategiyasi, 2017).

"O'z navbatida 2021 yil "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi"da banklarda ichki biznes jarayonlarini avtomatlashtirish orqali inson resurslaridan samarali foydalanib, xodimlarni asosan mijozbay ishlashga yo'naltirish muhim vazifalardan biri sifatida qoraladi" (PF-6155, 2021).

Bunda:

"- banklarda xizmat ko'rsatish sifatini oshirish hamda xalqaro umum e'tirof etilgan standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish (CRM) tizimini joriy etish;

- banklarning axborot texnologiyalar infratuzilmasini takomillashtirish;

- moliyaviy texnologiyalar asosida yangi raqamlashtirilgan bank xizmatlarini joriy qilish;

- mijozlarga zamonaviy standartlar asosida xizmat ko'rsatish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan alohida o'qish va seminarlar tashkil etish" nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 2-martda PF-5953-son Farmoni bilan xususiy sektor rivojlanishini rag'batlantirish, banklarning investitsiyaviy jozibadorligini, bank xizmatlari ommabopligi va sifatini oshirish, zamonaviy chakana bank xizmat turlarini ko'paytirish, davlat ulushiga ega bo'lgan banklarni transformatsiya qilish maqsadida bank sektorini isloh qilishning bir qancha asosiy yo'nalishlari belgilandi.

Ulkan qamrovli tahlil texnologiyasini qo'llash ham ortib bormoqda va ma'lumotlar massivlari (BigData), prognozlash va baholash, mijozning kreditga layoqatliligi, skoring, andarrayting uchun foydalanilmoqda. Mazkur texnologiyalar mijoz afzalliklarini tahlil qilibgina qolmay, balki mahsulot yoki xizmatlarning samarali yanada yangi turlari taklifini ham ilgari suradi.

"Banklar yangi bank xizmatlari va mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarida innovatsion faoliyat natijasi, boshqacha aytganda uning samaradorligini prognozlash orqali baholashlari tavsiya etiladi" (Fliginskix va Tarasova, 2016).

Ayniqsa, yangi bank xizmatlarini joriy etish bir qancha ichki va tashqi omillarga, xususan makroiqtisodiy, moliyaviy, me'yoriy-huquqiy, inson resurslari, texnologik risklariga bog'liq bo'lib, banklar bu borada aniq prognozlarga tayanib ish ko'rishlari lozimligi ta'kidlanadi.

Tumin, Buxonova, Krivsova (2018) o'z tahlillarida FinTech orqali yangi bank mahsulotlarini joriy etishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kiberxavfsizlikni ta'minlash muhimligini ko'rsatishib, eski infratuzilmalardan voz kechib, yangi

texnologiyalarni joriy etish ma'lum kiber hujumlar xatarlarini oshirishi mumkinligidan ogohlantirishgan.

Vasilenko (2019) bank sektoridagi moliyaviy innovatsiyalar haqida quyidagilarni keltirgan:

- potentsial xaridorning ilgari qondirilmagan ehtiyojlarini qondirishga qodir bo'lgan sifat jihatidan yangi mahsulot;
- ilgari taklif qilingan xizmatlarga nisbatan jozibador iste'mol xususiyatlariga ega bo'lgan nisbatan yangi bank mahsuloti;
- bir xil bank mahsulotini yaratish uchun ilg'or texnologiyalardan foydalanish ekan.

"Bank sohasida innovatsion o'zgarishlarni amalga oshirish Rossiya bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish, front-ofislarda xodimlarning bandligini kamaytirish, bank operatsiyalarini vaqtinchalik optimallashtirishni ta'minlash, bilimlar asosida bank sektorini rivojlantirishning dinamik modelini yaratish hamda bank xizmatlari holatini yaxshilash (rentabellik va samaradorlikni oshirish) kabi maqsadlarga erishishga olib keladi" (Vasilenko, 2019).

Petrova va Kuznesova (2020) yozishlaricha, banklarda innovatsion mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqishning asosiy motivatsiyasi bu yangi mijozlarni jalb qilish hamda ehtiyojlarini to'liq qondirish orqali eski mijozlarni saqlab qolishdir.

Bundan tashqari, bozorga yangi mahsulotlarni chiqarish tezligi ham mahsulot innovatsiyalarini rivojlantirish uchun juda muhim hisoblanadi: bank bozorga yangi innovatsion mahsulotlarni qanchalik tez olib kirsam, u shunchalik ko'proq raqobatbardosh ustunliklarga ega bo'ladi.

Korsunova (2020) o'z tadqiqotlarida Rossiya Federatsiyasida neobanklar tashkil qilishning bir qancha kamchiliklari mavjud ekanligini keltirgan:

- Maxsus dasturlarni ishlab chiqish uchun yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish zaruriyati;
- Axborot xavfsizligini ta'minlashdagi yuqori xarajatlar;
- Dasturiy ta'minotni rivojlantirishdagi yuqori xarajatlar;
- Kiber xavfsizlik riski.

Neobanklar Rossiyada va xorijda ancha rivojlangan. Rossiya Federatsiyasidagi eng yirik neobank Tinkoff Bank hisoblanadi. Mamlakatimizda neobanklarning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy to'siq Rossiyaning fintech loyihalari ommaviy bozorga chiqqan olmasligidir. Buning sababi, Rossiyada fintech startaplari ekotizimining aksariyat hollarda banklar o'rtasidagi raqobat emas, balki hamkorlikka qaratilgan loyihalar asosida yaratilganligi. Aytish mumkinki, mamlakatda FinTech startaplarini yaratish, ularni rivojlantirish ssenariylarini

ishlab chiqish, shu bilan birga, davlat va investorlar tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda tartibga solish uchun qonunchilik bazasini yaratish kerak.

Polireddi (2024) ta'kidlashicha, 2030-yilga borib moliya sektori har yili sun'iy intellektga 64,03 milliard dollar sarflashi kutilmoqda. 2025 yilga kelib sun'iy intellektni mavjud tizimlarga integratsiyalash uchun qo'shimcha 31 milliard dollar sarflanadi, bunda asosiy e'tibor firibgarlikka qarshi kurashishga qaratilgan. Ko'plab insonlar mablag'larini tejash maqsadida sun'iy intellekt va mashina o'rganuviga murojaat qilmoqdalar. Ushbu texnologiyalar 2023-yilgacha butun dunyo bo'ylab bank sektorida 447 milliard dollar tejashi kutilmoqda. 2030-yilga kelib bu ko'rsatkich 1 trillion dollarga yetishi mumkin.

Ushbu tadqiqotda qo'llanilgan OLS (Eng Kichik Kvadratlar Usuli) vaqtli ketma-ketlik tahlili, ketma-ket vaqtlarning o'zgarishi ustida statistik analizni o'z ichiga oladi. Bu tahlil usuli ma'lumotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlarni aniqlash va prognozlashda foydalaniladi. OLS tahlili orqali, bir o'zgaruvchining boshqa o'zgaruvchilar bilan qanchalik bog'liq bo'lishini aniqlash mumkin bo'ladi.

Bank faoliyatining yuqori foyda olishini ta'minlash bank xodimlarining maqsadi bo'lishi lozim. Tijorat banklari kam xarajat hisobiga yuqori foyda olishni ko'zlaydi. Ma'lumki, tijorat banklari iqtisodiyotda bo'sh turgan mablag'larni akkumulyatsiya qiladi. Bunda zamonaviy bank menejmenti maqsadi yig'ilgan mablag'larni omonatchilarga o'z vaqtida va to'laligicha qaytarilishi hamda ishonchli saqlanishini ta'minlashga yo'naltirilishi lozim. Demak, ushbu maqsadni amalga oshirish banklarda joriy va qisqa muddatli likvidlikni, aktiv va passivlarni muddati va miqdorining muvofiqligini ta'minlashni, kredit portfeli sifatining yuqori bo'lishi va zarur naqd pul zahiralariga ega bo'lishni talab etadi.

Shunday qilib, bank menejmentining ijtimoiy maqsadining avrim jihatlari vujudga keladi. Chunki, iqtisodiyot taraqqiyotida tijorat banklari tomonidan ishlab chiqarishga, strategik maqsadlarga va turli tarmoqlarga, rivojlanmagan hududlarga kreditlar ajratilib ularning ehtiyojlari qondiriladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, banklar faoliyati menejmenti -rejalashtirish, tashkil qilish, tartibga solish va nazorat qilish kabilardan iborat bo'lib, ular banklar faoliyatining samaradorligini va raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 1.“O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida” gi qonun, 30modda. <https://lex.uz/acts/-45904522>.O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni, 5-modda. <https://lex.uz/docs/-45819693>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2023-yil 1-dekabrdagi byulleteni.
3. O‘zbekiston Respublikasining ““Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi
4. O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida” gi
5. 2019-yil 5-noyabrdagi O‘RQ-580-sonli Qonuni
S.Elmirzayev va boshqalar. Moliya bozori. //: Darslik, -T.: “Iqtisodmoliya”, 2019. -222 b.
Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, & Inomjon To‘raevich Sharipova Mushtariy Obloyorovna. (2024). TIJORAT BANKLARIDA ZAMONAVIY BANK MENEJMENTINI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI. MOLIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY
6. TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI, 1(4), 1200-1204.
7. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/05/28/NamDU-ARM-2193Bank_menejmenti_va_marketingi.pdf